



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish

Madraximova Moxira Imomaliyevna –
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: mohiraxonmadrahimova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni pedagogik amaliyot misolida yoritilgan. Pedagogik amaliyot bo'lajak mutaxassislarning nazariy bilimlarini amaliyotda sinovdan o'tkazish, pedagogik faoliyat mazmuni bilan tanishish, metodik ko'nikmalarni shakllantirish hamda mustaqil ishlashga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada kasbiy kompetensiyalar tarkibiy qismlari – metodik, kommunikativ, refleksiv, tashkiliy va innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirish omillari tahlil etiladi. Shuningdek, pedagogik amaliyot jarayonida o'quvchilarda didaktik yondashuvlardan foydalanish, dars jarayonini samarali tashkil etish hamda o'z faoliyatini tahlil qilish orqali o'zini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, pedagogik amaliyot, kasbiy kompetensiya, metodik ko'nikma, innovatsion yondashuv, refleksiya, o'qituvchi tayyorlash.

Развитие профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов в процессе педагогической практики

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс развития профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов на примере педагогической практики. Педагогическая практика является важным фактором для проверки теоретических знаний будущих специалистов, знакомства с содержанием педагогической деятельности, формирования методических навыков и подготовки к самостоятельной работе. В статье анализируются составляющие профессиональных компетенций – методическая, коммуникативная, рефлексивная, организационная и инновационная. Также показаны возможности использования дидактических подходов, эффективной организации учебного процесса и самоанализа деятельности для профессионального роста. Результаты исследования способствуют совершенствованию процесса профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: начальное образование, педагогическая практика, профессиональная компетенция, методические навыки, инновационный подход, рефлексия, подготовка учителей.

Development of professional competencies of future primary school teachers in the process of pedagogical practice

Annotation. This article explores the process of developing the professional competencies of future primary school teachers through pedagogical practice. Pedagogical practice plays a crucial role in testing students' theoretical knowledge, familiarizing them with the content of teaching activities, developing methodological skills, and preparing them for independent work. The article analyzes the main components of professional competencies – methodological, communicative, reflective, organizational, and innovative. It also highlights the opportunities for professional growth through the use of didactic approaches, effective classroom management, and self-reflection. The results of the study contribute to the improvement of professional training for future primary school teachers.

Keywords: primary education, pedagogical practice, professional competence, methodological skills, innovative approach, reflection, teacher training.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning har bir a'zosidan zamonaviy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliy faoliyatda to'g'ri qo'llay olish, pedagogik jarayonni samarali tashkil eta olish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetensiya bu o'qituvchining o'z faoliyatida pedagogik vazifalarni samarali hal etish, o'quvchilarni rivojlantirish va ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish qobiliyatini ifodalovchi muhim sifatdir. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni pedagogik amaliyot bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki pedagogik amaliyot nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko'rish, ta'lim-tarbiya jarayonini bevosita kuzatish, metodik ko'nikmalarni shakllantirish va mustaqil dars o'tkazish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, pedagogik amaliyot jarayonida talabalar nafaqat metodik va didaktik yondashuvlardan foydalanish tajribasini orttiradilar, balki o'z faoliyatlarini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olib darsni tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Bu esa ularning kasbiy shakllanishida, ya'ni kommunikativ, refleksiv, tashkiliy hamda innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf davri bolaning bilim olishga bo'lgan munosabati, o'zini jamiyatda tutishi, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu bois boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi shaxs, balki tarbiyachi, yo'lboshchi va psixolog sifatida ham faoliyat yuritishi zarur. Bunday yuksak maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchida keng qamrovli kasbiy kompetensiyalar shakllangan bo'lishi talab etiladi.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, u o'qituvchining nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tadbiq eta olishi, o'zining shaxsiy sifatleri, kasbiy mahorati va pedagogik yondashuvlari bilan uyg'un holda samarali natijaga erishishini anglatadi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari o'zida metodik, kommunikativ, refleksiv, tashkiliy va innovatsion jihatlarni mujassamlashtiradi. Metodik kompetensiya o'qituvchining o'quv jarayonini samarali tashkil etishi, ta'lim metod va vositalarini to'g'ri tanlay olishi va didaktik imkoniyatlardan foydalanishini ifodalaydi. Kommunikativ kompetensiya o'quvchilar, ota-onalar va jamoa bilan ijobiy muloqot o'rnatish, ularning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olish, sog'lom psixologik muhit yaratish qobiliyatini bildiradi. Refleksiv kompetensiya esa o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglab yetish va ularni bartaraf etishga intilish jarayonida namoyon bo'ladi. Tashkiliy kompetensiya o'quv jarayonini hamda darsdan tashqari faoliyatlarni to'g'ri rejalashtirish va boshqarishni o'z ichiga oladi. Innovatsion kompetensiya esa zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, yangi pedagogik metodlarni tatbiq etish, ijodiy yondashuvni rivojlantirishni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va ularni pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish masalasi bugungi kunda pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi. So'nggi yillarda bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, xorijiy va mahalliy pedagog olimlarning qarashlari, davlat

dasturlari hamda me'yoriy hujjatlar tahlili ushbu muammoning nazariy va amaliy asoslarini yoritishga xizmat qiladi.

Pedagogik kompetensiya tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u o'qituvchining kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy fazilatlar va qadriyatlar majmuasini o'z ichiga oladi. Jumladan, A.V.Khutorskoy (2003) o'z tadqiqotlarida pedagogik kompetensiyani shaxsga xos bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyati sifatida talqin etgan. V.A.Slastyonin (2002) esa kasbiy-pedagogik kompetensiyani o'qituvchining kasbiy tayyorgarligining asosiy mezonini deb baholaydi.

Mahalliy tadqiqotchilardan G.Y.Yo'ldoshev, M.Q.Usmonov, Sh.S.Shoahmedov, N.H.Saidova, Sh.N.Yusupovlarning ishlarida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining tayyorgarlik jarayonida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi turli jihatlar bilan yoritilgan. Jumladan, Sh.S.Shoahmedov (2018) pedagogik amaliyotni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish va mustahkamlashda muhim omil sifatida ko'rsatadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda amaliyotning tutgan o'rni haqida J.J.Rousseau, I.G.Pestalozzi, K.D.Ushinskiylarning pedagogik qarashlari ham alohida ahamiyatga ega. Ularning asarlarida ta'lim va tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi, o'qituvchining shaxsiy namunasi va amaliy faoliyatining muhimligi ta'kidlangan.

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim berish O'zbekiston Respublikasining –2030 yillarga mo'ljallangan Ta'lim strategiyasida ham asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu hujjatlarda pedagogik amaliyot orqali o'qituvchilikka bo'lgan ichki motivatsiyani oshirish, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va real muhitda pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan vazifalar belgilab berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni pedagogik amaliyot davomida rivojlantirishga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim nazariyalariga, xususan, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va reflektiv pedagogika konsepsiyalariga tayangan holda ilmiy-amaliy asoslar ishlab chiqildi. Kasbiy kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy qismlari va ularning shakllanish bosqichlari mavjud ilmiy-nazariy manbalar asosida chuqur tahlil qilindi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlanib, ularni samarali tashkil etish yo'llari nazariy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot doirasida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi va ular uch bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqich – asoslovchi (dastlabki diagnostik) bosqich bo'lib, unda talabalar kasbiy kompetensiyalarining mavjud darajasi aniqlandi; ikkinchi bosqich – shakllantiruvchi bosqichda maxsus ishlab chiqilgan pedagogik topshiriqlar, mashg'ulotlar va amaliy vazifalar asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'sir ko'rsatildi; uchinchi bosqich – ta'kidlovchi bosqichda esa takroriy diagnostika orqali o'zgarishlar baholandi va tajribaning samaradorligi tahlil qilindi. Talabalarning kompetensiyalarini aniqlashda so'rovnoma, testlar, pedagogik kuzatuv va suhbat metodlaridan foydalanildi. Ular yordamida talabalarning didaktik, metodik, kommunikativ, tashkiliy, reflektiv kompetensiyalarini namoyon qilish darajasi aniqlab borildi. Shuningdek, pedagogik amaliyot davomida to'plangan ma'lumotlar asosida natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, dastlabki va yakuniy ko'rsatkichlar taqqoslandi. Foizlar, o'rtacha arifmetik ko'rsatkichlar va dispersiya tahlili orqali kasbiy kompetensiyalarning rivojlanish dinamikasi aniqlab berildi. Tajriba-sinov ishlari uch yil davomida Farg'ona davlat universiteti hamda mamlakatimizning boshqa ikki oliy ta'lim muassasasi (Andijon va

Qoqon shaharlari)da tashkil etildi. Tadqiqotda 300 nafardan ortiq respondent-talaba ishtirok etdi, ular tajriba va nazorat guruhlariga tasodifiy tanlov asosida ajratildi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik model ishlab chiqildi. Model tarkibida pedagogik amaliyot jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan metodlar, refleksiya mexanizmlari, baholash mezonlari hamda o'zaro aloqador pedagogik faoliyat shakllari integratsiyalashgan holda ifodalandi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyot boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun faqatgina amaliy ko'nikmalarni emas, balki ularning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil ekanligini tasdiqladi. Tajriba natijalari asosida olingan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ta'lim jarayoniga joriy etilishi mumkin bo'lgan uslubiy ko'rsatmalarga asos bo'lib xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari, kuzatuvlar, test va so'rovnoma natijalari bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida bosqichma-bosqich va tizimli rivojlantirish mumkinligini ko'rsatdi. Dastlabki (asoslovchi) bosqichda talabalar kasbiy kompetensiyalarning ayrim turlari bo'yicha past va o'rta darajada ekanligi aniqlandi. Jumladan, darsni rejalashtirish, didaktik materiallar tanlash, o'quvchilar bilan samarali muloqot olib borish, sinfda o'quv jarayonini boshqarish, o'z faoliyatini tahlil qilish kabi ko'nikmalarda sustlik mavjud edi. Bu holat pedagogik amaliyotning puxta metodik asoslar bilan tashkil etilishi zarurligini ko'rsatadi.

Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhi talabalari bilan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg'ulotlar, metodik tavsiyalar, individual topshiriqlar, refleksiya va guruhiy tahlil ishlari amalga oshirildi. Bu jarayonda talabalar darsni loyihalash, uni samarali tashkil etish, turli yoshdagi o'quvchilar bilan individual yondashuv asosida ishlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, baholash mezonlarini ishlab chiqish, hamda o'z faoliyatini tahlil qilish (refleksiya) ko'nikmalarini shakllantira oldilar. Ayniqsa, faoliyat ustidan kuzatuv olib borish va undan xulosa chiqarish bo'yicha reflektiv yondashuv orqali talabalarda tanqidiy va tahliliy fikrlash malakalari sezilarli darajada rivojlandi.

Ta'kidlovchi bosqichda o'tkazilgan takroriy diagnostika natijalariga ko'ra, tajriba guruhi talabalarining 62-66 foizi asosiy kasbiy kompetensiyalar bo'yicha o'rtacha-yuqori darajaga ko'tarilganligi aniqlandi. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 48-51 foiz atrofida bo'lib qoldi. Statistik tahlil natijalari tajriba guruhi ishtirokchilari orasida metodik va kommunikativ kompetensiyalarning sezilarli darajada o'sganini ko'rsatdi. Ayniqsa, talabalar dars jarayonida mustaqil qaror qabul qilish, muammoni tahlil qilish, o'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlab, mos metod tanlash bo'yicha ijobiy o'zgarishlar namoyon etdilar.

Tajriba davomida shuningdek, metodist va amaliyot rahbarlarining faol ishtiroki, ularning berayotgan muntazam fikr-mulohazalari, amaliyotda yo'l-yo'riq ko'rsatishlari talabalar uchun kasbiy o'sish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Pedagogik amaliyot jarayoni talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularning kasbiy o'zini anglash, mas'uliyat hissi, tashabbuskorlik, muloqot madaniyati kabi shaxsiy fazilatlarini rivojlantirganini kuzatish mumkin bo'ldi.

Tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, pedagogik amaliyotni nazariy va amaliy jihatdan puxta tashkil etish, uning maqsadli rejalashtirilgan, reflektiv yondashuvga asoslangan bo'lishi orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich samarali rivojlantirish imkoniyati mavjud. Tadqiqot natijalari, shu bilan birga, oliy pedagogik ta'lim tizimida amaliyotga yo'naltirilgan o'quv modellarini joriy etish va ilg'or metodlarni qo'llash zarurligini ham asoslab berdi.

XULOSA

Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning keyingi ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati va ijtimoiy rivojlanishida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalasi nafaqat ta'lim tizimi, balki butun jamiyat taraqqiyotida ham strategik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kasbiy kompetensiyalar metodik, kommunikativ, refleksiv, tashkiliy va innovatsion jihatlarni o'zida mujassam etib, ularni rivojlantirishda pedagogik amaliyotning o'rni beqiyosdir.

Pedagogik amaliyot jarayonida talaba-o'qituvchilar nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash, turli pedagogik vaziyatlarni hal etish, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, darslarni interfaol metodlar asosida tashkil etish, o'z faoliyatini tahlil qilish va ustozlar tajribasidan o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon nafaqat kasbiy ko'nikmalarni mustahkamlaydi, balki bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik, yangilikka intilish va mas'uliyat hissini ham kuchaytiradi. Shuningdek, pedagogik amaliyot davomida talabalar jamoaviy faoliyatda ishtirok etib, maktab hayoti va ta'lim muhitiga moslashadilar. Natijada, ular o'zini haqiqiy pedagog sifatida his eta boshlaydilar va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari sezilarli darajada ortadi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni samarali tashkil etish, avvalo, pedagogik amaliyot jarayonini to'g'ri rejalashtirish va boshqarishga bog'liqdir. Shu bois pedagogik amaliyot tizimini yanada takomillashtirish, uni innovatsion yondashuvlar bilan boyitish va nazariy ta'lim bilan uzviy bog'lash zarur. Bu esa kelgusida ta'lim tizimida raqobatbardosh, kasbiy jihatdan yetuk, ijodkor va mas'uliyatli boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. J.R.Qarabayev Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari. – 2024.
2. N.A.Abduraxmonova Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faolligini oshirishda pedagogik ko'nikmalarning roli. – 2025.
3. "Pedagogika" (NamDU o'quv adabiyoti / qo'llanma). Namangan davlat universiteti nashri, – 2024.
4. "Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish" konferensiya maqolalari to'plami.
5. D.S.Qodirova Pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, –2023.
6. M.M.To'xtayeva O'qituvchi kasbiga tayyorlashda reflektiv yondashuvning ahamiyati. "Ta'lim va innovatsiya" ilmiy-amaliy jurnali, №2, –2023.
7. Z.Yo'ldosheva Boshlang'ich ta'limda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuv. – Toshkent: TDPU nashriyoti, –2022.
8. R.M.Avazova Bo'lajak pedagoglarda metodik tayyorgarlikni shakllantirish usullari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Qarshi: –2023.